

XORAZM VOHASI QADIM UDUMLARIDA RUH VA QUSH MUNOSABATLARINING TARIXIY ILDIZLARI

Shomurotova Bibixon O'ktamovna

TTA Urganch filiali Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

bibixon86@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasi qadim udumlarida ruh va qush munosabatlarning tarixiy ildizlari xususida soʻz boradi. Jumladan, oʻzbek va ingliz folklorida ornitonimlarning umumiy ildizga ega ekanligi, genezisi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, Voha folklorida ruh va qush munosabatlari xalq ogʻzaki ijodining dostonidan boshqa janrlarida ham oʻzining sezilarli izlarini qoldirganligi tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: afsonaviy qushlsar, ornitonim, oʻzbek afsonalri, qushlar genezisi, oʻzbek va ingliz folklori, madadkor qush timsoli, antropomorfizm, kaptar, kabutar.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ДУХА И ПТИЦЫ В ДРЕВНИХ ОБЫЧАЯХ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Шомуротова Бибиxон Уктамовна

Преподаватель кафедры английского языка Ургенчского филиала ТМА

bibixon86@mail.ru

Аннотация. В данной статье говорится об исторических корнях взаимоотношений духа и птицы в Хорезмском оазисе. В частности, в узбекском и английском фольклоре высказываются мнения об общем корне и происхождении орнитонимов. Также анализируется, что взаимоотношения души и птицы в фольклоре оазиса оставили свои существенные следы и в других жанрах фольклора, кроме эпоса.

Ключевые слова: мифические птицы, орнитонимы, узбекские легенды, генезис птиц, узбекский и английский фольклор, символ птицы-помощника, антропоморфизм, голубь.

HISTORICAL ROOTS OF THE RELATIONSHIP OF THE SPIRIT AND BIRDS IN THE ANCIENT CUSTOMS OF THE KHOREZM OASIS

Shomurotova Bibikhon Uktamovna.

Teacher of the English language department of TMA Urgench branch

bibixon86@mail.ru

Annotation. This article talks about the historical roots of the relationship between the spirit and the bird in the Khorezm oasis. In particular, Uzbek and English folklore have expressed opinions about the common root and genesis of ornithonyms. It is also analyzed that the relationship between the soul and the bird in the folklore of the oasis has left its significant traces in other genres of folklore than the epic.

Key words: legendary birds, ornithonyms, Uzbek legends, genesis of birds, Uzbek and English folklore, symbol of helpful bird, anthropomorphism, dove.

KIRISH. Uzoq Sibirdan topilgan yodgorliklar ham turkiy insoniyat, jumladan, xalqlarning ornitomorflar borasidagi tasavvur va tafakkurlari bir-biriga vobasta ekanini ko'rsatadi[1]. Masalan, oltoyliklar jonni xo'roz shaklida, yoqutlar esa so'fiyto'rg'ay shaklida tasvirlaganlar. Shimoliy hindular ham ruhni kaptar shaklida ifodalagan. Ruhlarini qush tasviri orqali berish misrliklar, bobilliklar va yunonlar uchun tanish edi. Qadimgi misrliklarning fikriga ko'ra, marhumning ruhi qush shaklida tanadan uchib chiqadi. Misol uchun, Misr xudosi Osirisning ruhi kalxat ko'rinishiga ega edi. O'rta Osiyo xalqlari ruhni kaptar yoki boshqa qushlarning ko'rinishiga ega deb hisoblashgan[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI: Xorazm vohasi etnografiyasini puxta o'rgangan G.Snesarev "ushbu hudud uchun tipik bo'lgan pandemoniumlardan ayrimlarining o'ziga xos alohidaliklari" haqida gapirar ekan, "Bu ruhlarning aksariyati antropomorf (inson qiyofasidagi boshqa jonzot) bo'lib, biror bir predmetga, tabiat hodisasiga yoki ofatga aloqador emas. Ular orasida juda ibtidoiy fikrlarga urg'u

beriladi. Bu ruhlar goh hayvon, goh qush qiyofasida namoyon bo'lishadi" deb yozadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Jon va ruhning moddiy mohiyati esa juda ibtidoiy bo'lib, animistik tushunchalarga ega. Ko'proq antropomorfizmga (yarim odam, yarim hayvon) borib taqaladi. Faqatgina Xorazmda emas, balki butun O'rta Osiyo va boshqa xalqlarda ham jonning tanani tark etishida qushga yoki kapalakka aylanib uchib ketishi haqida tasavvur mavjud Xorazmda esa ko'proq kaptar tarzida namoyon bo'ladi. Bu holatga G.Snesarev quyidagicha izoh beradi: "Ruhning kaptar shaklidagi poetik obrazlarini Xorazm afsonalarining aksariyatida uchratish mumkin. Masalan, "To'rabekxonim" afsonasida uning ruhi-kaptar shaklida beriladi. Qabristonlarga ziyorat uchun kirilganda, kundalik turmushda ham qushlar uchun bir siqim yegulik in'om qilish odati hozirgacha saqlangan. Dehqonlarning "Haqqula" nomli udumida xirmondan qushlar uchun don orttirib qolishi ham o'sha odat bilan aloqador. Xorazm arxeologik qazilmalaridan ma'lum bo'lishicha ossuar qutilar qopqog'ida ham don tasviri bor. Ushbu ossuar an'alarining keyingi o'zgarishga uchragan shakli yanada xarakterlidir. Biz Xorazmning eski qabristonlaridan birining gumbazida qush tasviriga duch keldik. Kaptarning ruh obrazi sifatida tasavvur qilinishi tojiklarda ham uchraydi [4].

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Kabutar so'zining o'zagida ko'k ko'k ma'nosini beruvchi forscha kabud so'zi bo'lgani kabi uning asl turkiy nomi ko'karchin // ko'karjinda xuddi shu kolorizm mavjud. Dostonlarda ham qahramonlarning aynan ko'k qo'sh aylanishi motivi ham o'zining chuqur ildiziga ega. Masalan, "Bir duo o'qib dam soldi, darhol Zebo kanizak bir ko'k qush bo'lib, qanot qoqib havog'a chiqib qaydasan shahri Xorazm deb ko'zdin g'oyib bo'ldi"[5]. Insonning kaptar//kabutarga aylanishi dostonlarda keyinchalik ham saqlanib qolgan. Masalan, "Hurliqo va Hamro" dostonidan "Ul hovuzdin Hamro suv ichdi. Hovuzning atrofidagi gullarning orasinda cho'zilib yotdi. Ersa bir zamondin keyin, bir burgut keldi. Bir g'alton urdi, dev bo'ldi, yana g'alton urdi, zaif bo'ldi, yana osmondin bir kabutar keldi. Alar ham g'aoton urdi. Ba'zilari zaif

bo'ldi va ba'zilar zaif-pari, bir to'p kabutar keldi, alar ham g'alton urdi, har qaysi bir qiz bo'ldi. Bir zamondin so'ng qirq kabutar keldi, g'alton urdi qiz bo'ldi va yana shoh to'ti keldi. Alar ham g'alton urdi, bir pari bo'ldi, o'n to'rt kechalik oydek"[6]. O'zbek animistik tasavvurlarida qush alohida tizimni tashkil qiladi. Markaziy Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda "Pari asosan inson qiyofasida tasavvur qilinadi, ko'p hollarda u chiroyli qiz yoki yigit, ayrim hollarda hayvon, qush, olov tarzida tasvirlanadi". Shu bilan birgalikda qarama-qarshi holat ham mavjud: "Barcha ruhlar kabi parilar ham qurbonlik qilishni talab etishadi. Ular uchun asosiy yemish hayvon va qushlarning qonidir"[7]. Hozir kunda ham saqlanib kelayotgan marhumlarning ruhlariga atab bo'g'irsoq pishirish – is chiqarish odati ildiziga nazar solsak ham, qushlar bilan bog'liq holatga duch kelamiz. G.Snesarev ta'kidlashicha, "Ruh bo'g'irsoqni emas, balki uning isini tamaddi qiladi, degan tasavvur ruh (jon) haqidagi tushunchaning asta-sekin ilohiylasha borganini namoyon qiladi. Ushbu tushunchaning ilk bosqichlari marhumni "boqish" udumi bilan bog'lanadiki, o'sha davrlarda qabr yoniga turli oziqlar olib borib qo'yilgan. Qabr yoniga qo'yilgan oziqlarni qushlar tomonidan cho'qilab ketilishi hodisasi ham tasodifiy hol emas". Sababi qushlar qadimdan inson ruhining ramziy ko'rinishi sanalib kelgan. Xorazm va orolbo'yi arxeologik qazishmalari o'tmishdagi dafn marosimlarining turli shakllarda bo'lganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu yerda turli davrlarda murdani yoqish, yerga joylashtirish, hayvon va qushlarga go'shtini yedirish, keyinchalik suyaklarni ostadonlarda saqlash kabi udumlar qo'llanilgan[8]. K.A. Inostransev bu haqda "jasadni mozorga qo'yish, go'rga joylashtirish yoki yer ostiga ko'mish qat'iy ta'qiqlangan. O'likni tezroq it yoki *qushlarning yeb bitirishi* yaxshi nishona hisoblangan, yeb bitirishning kechikishi esa yomon hodisa sifatida baholangan"[9]. G.Snesarev vohada qush va ruh munosabatlari talqinida hozirda unutilgan afsonaga e'tibor qaratadi. Hubbi haqidagi afsonaga ko'ra, u quvg'indagi kaptarga aylanib g'oyib bo'ladi. Eng qadimgi marosimlar o'chog'i bo'lgan Durgadikda Hubbi qabristoni ziyoratgohi joylashgan. O'sha yerdagi qariyalar afsonani davom ettirishdi: Bu yerga bir qush uchib kelgan. U bu yerga kelib

shunday degan: ajoyib joy ekan, juda go'zal, bu yerda yashasa bo'ladi. Qush daraxtga qo'nib atrofga razm soladi. Uning onasi o'sha paytda bug'doy quritayotgan ekan. Kaptar kelib bug'doy donasini cho'qiydi, onasi o'g'lini tanimay, uni quvadi. Shunda kaptar:

Quvmang meni doshlar bilan,

Go'zzing do'lar yoshlar bilan, – deydi va uchib ketadi (Muallif asliyatda qo'shiqning ruscha mazmunini bergan. S.Ro'zimboev uning aslini voha ahli orasida tarqalgan varianti asosida tiklagan). Hubbining bu yerda kaptar obrazida bo'lishi nazarimizda e'tiborga loyiq narsa. O'lganlarning ruhi kaptar shaklida namoyon bo'lishi ancha keng tarqalgan hodisa. Ammo Hubbi g'oyib bo'lgan bo'lsa-da, tirik hisoblanadi. Jahon fol'klorida ham buyuk ma'bud va ma'budalar aksariyat qush va hayvon bilan aralash tasavvur etiladi. Masalan, Izida haykalida sigir boshi aks etgani, Persefona va Demetra cho'chqa qiyofasida o'z aksini topgani, Dionisning buzoq, Ozirisning gavdasi qush, boshi odam ko'rinishida tasvirlangani bunga misoldir. Xorazm afsonalarining bittasida o'g'lini izlayotgan Anbar ona qush qiyofasida tasvirlangan. Bu yerda Izidaning Ozirisni izlashda qaldirg'och shakliga kirganini eslash ortiqchalik qilmaydi. Ozirisning o'limi va uning motamida Izida qush shaklida yoki qush qanotli ayol qiyofasida tasvirlangan. J.Robertsonning guvohlik berishicha, butun Kofiriston bo'ylab, ko'p tomonlari bilan Anahita va Anbar ona obrazlariga o'xshash Dizana ma'budasi inonchi keng tarqalgan. U bola tug'ilishiga ham homiylik qilgan. Kimdaki o'g'il bola tug'lsa, Ture bayrami kuni Dizanaga albatta qo'y sovg'a qilgan. Dizana bug'doy o'stirishga ham homiylik qilgan. Robertson to'la asos bilan taxmin qiladiki, Dizana dastlab mahsuldorlik ma'budasi bo'lgan. Anahitaga o'xshab suv ilohi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. Afsonada aytilishicha, u odamlarga Prezungulda katta sug'orish kanalini tuhfa qilgan[10].Dizananing Kamdejdagi ibodatxonasi ichidagi maydonda yerga tayoqlar suqilib, qushning yog'och qiyofasi tasvirlanib uni kaptar deb nomlashadi. Xorazmda real shaxslar hayoti va faoliyati ham qushlar bilan bog'liq holda mifik tus olgan. Bunga misol shuki, Ko'hna

Urganchda Najmiddin Kubro shaxsiga oid yana bir afsona mavjudki, unga ko'ra, baland tog'da mo'jizali qush yashab, xazinani saqlar emish. Bu qush ham o'sha senmurv, to'g'rirog'i, uning so'nggi davrlardagi o'zgarishga uchragan simurg'dir. Bu esa "Shohnoma"ga daxldordir. G.Snesarev yozishicha, Sayid ota va Najmiddin Kubro ziyoratgohlarida ilgari toshdan yasalgan idish qo'yilgan bo'lib, unda muqaddas shaxslarning mo'jizaviy qushlari boqilgan. Ziyoratchilar bu idishlardagi suvga yuz-betini yuvishgan, bu suv ayniqsa ko'z kasalliklariga davo bo'lgan, o'z navbatida bolalarga sehrli ta'sir o'tkazgan.

XULOSALAR. Bu o'rinda misollarni aynan dostonlardan olganimiz boisi biror elementning yirik epik janrlarda ham aks etishi o'sha voea-hodisa, qarash, inonch-aqidalarning ta'sir qo'lami naqadar katta bo'lganini ko'rsatadi. Voha fol'klorida ruh va qush munosabtlari fol'klorning dostonidan boshqa janrlarida ham o'zining sezilarli izlarini qoldirgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.**Яковлев Я.А. К проблеме классификации и семантики орнитоморфных изображений с раскрытыми крыльями эпохи железа из Приобья // Материалы и исследования проблем народов Западной Сибири. Томск, 1996.
- 2.**Бычков Ю.А. Птица как символ религиозно-мифологической системы в традиционной культуре этносов Сибири. Вестник Нижневартковского государственного гуманитарного университета. Серия: "Культурология, Философия, Социология", №3.2012. – С. 60.
- 3** Snesearev. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari. Rus tilidan S.R.Ro'zimbayev tarjimasi. – Urganch:UrDU noshirlik bo'limi, 2018. – B.15.

- 4** Snesev G.P.Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari. Rus tilidan S.R.Ro'zimbayev tarjimasi. – Urganch:UrDU noshirlik bo'limi, 2018. – B.74.
- 5.** Xorazm dostonlar.Oshiqnoma. 1-kitob. –Urganch: Xorazm, 2006. – B. 277.
- 6.** . Xorazm dostonlar.Oshiqnoma. 1-kitob. –Urganch: Xorazm, 2006. – B.108.
- 7.** Snesev.Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari. Rus tilidan S.R.Ro'zimbayev tarjimasi. – Urganch:UrDU noshirlik bo'limi, 2018. – B.18.
- 8.** Тольстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: 1962. –С. 133, 166, 179, 181,182; Рапопорт Ю.А. Хорезмские асоданы (К истории религии Хорезма), СЭ, 1962, № 4, -С.67-83.
- 9.**Иностранцев К.А. О древнеиранских погребальных обычаях и постройках. – СПб, 1909.– С. 97.
- 10.** Фрезер Дж. Золотая ветвь. вып. III. – С.77-179.